

MILLIY OZODLIK HARAKATLARI: BOSQIN, QARSHILIK VA KURASH

*Abduqahorov Anvarjon Alijon o‘g‘li
Navoiy Davlat Universiteti Tarix fakulteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta Osiyoda, xususan, Turkiston hududida bosqinchi kuchlarga qarshi yuzaga kelgan milliy ozodlik harakatlari tahlil qilinadi. Tarixiy bosqinchilik jarayonlari, ularning mahalliy aholi hayotiga ta’siri, shuningdek, mahalliy xalqning turli shakllarda ko‘rsatgan qarshiliklari, qurolli va mafkuraviy kurash vositalari yoritiladi. Jadidlar, basmachi harakati va Turkiston muxtoriyati doirasidagi harakatlar misolida milliy uyg‘onish va erkinlik g‘oyalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: milliy ozodlik, mustamlakachilik, bosqin, qarshilik harakati, basmachilik, jadidchilik, Turkiston.

Milliy ozodlik harakatlari – bu har bir xalqning o‘z erki, madaniyati, tili, dini va siyosiy mustaqilligini saqlab qolish yo‘lidagi tarixiy kurashidir. Xususan, O‘rta Osiyo xalqlari XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan bosqinchilik siyosatiga duch keldi.

Bu davrda Turkiston hududining har bir burchagida bosqinlarga qarshi norozilik harakatlari, mafkuraviy qarshilik va qurolli kurashlar yuzaga chiqdi. Jadidlar harakati orqali ma’rifiy usullarda kurash olib borilgan bo‘lsa, basmachi harakati qurolli qarshilik ko‘rinishida namoyon bo‘ldi.

Milliy ozodlik harakatlari tarixiy xotiraning ajralmas qismi bo‘lib, ular xalqning o‘zligini yo‘qotmaslik, mustamlaka zulmiga qarshi turganligini ifoda etadi. Ushbu maqolada aynan shu kurashning shakllari, bosqichlari va g‘oyaviy asoslari yoritiladi.

Ushbu maqola tarixiy-tahliliy, hujjatlari va taqqosloviy metodlarga tayangan holda yozildi. Tadqiqot manbalari sifatida XIX–XX asr boshidagi tarixiy hujjatlar, muhim arxiv materiallari, basmachilik harakatining yetakchilari va jadidlarning asarlari, shuningdek, zamonaviy tarixchilarning tadqiqotlari (B. Karim, X. Do‘stmuhammad, A. Salohiy va boshqalar) o‘rganildi.

Shuningdek, harakatlar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar aniqlash uchun har bir kurash shakli: jadidlar orqali mafkuraviy-ma’rifiy qarshilik, basmachilik orqali qurolli harakat, Turkiston muxtoriyati orqali siyosiy kurash jihatidan baholandi.

Voqealar tahlilida ularning ijtimoiy, madaniy va siyosiy sharoit bilan qanday bog‘liqligi, ommaviy qo‘llab-quvvatlanganligi va bosqinchi kuchlar tomonidan qanday bostirilgani o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari quyidagi muhim jihatlarni ko‘rsatdi:

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston hududining bosib olinishi (1865–1885) xalqni o‘z irodasidan mahrum etdi, ijtimoiy va iqtisodiy tuzumlar buzildi, mahalliy boshqaruv tizimi yo‘q qilindi. Bu ahvol xalq noroziliginini kuchaytirdi.

Jadidlar harakati orqali xalq orasida milliy uyg‘onish, o‘zlikni anglash, zamonaviy tafakkur va mustaqillik g‘oyalari keng tarqaldi. Ular maktablar, gazeta-jurnallar, sahna asarlari orqali mustamlakachilikka qarshi kurash olib bordilar.

Bosmachilik harakati (1916–1930-yillar) milliy ozodlik harakatining qurolli shaklidir. Qo‘qon, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Buxoro va Xorazmda faol bo‘lgan bu harakat xalqning bevosita mustamlakachilik zulmiga qurol bilan qarshilik ko‘rsatganligini ko‘rsatadi. Yetakchilar (Madaminbek, Xo‘ja Soat, Ibrahimbek, Shirmatbek va boshqalar) rahbarligida harbiy safarbarlik tashkil qilindi.

Turkiston muxtoriyati (1917–1918) — siyosiy kurash shakli bo‘lib, xalq irodasi va demokratiya g‘oyasi asosida shakllangan. Uning zo‘ravonlik bilan tugatilishi xalq ongida mustaqillik uchun harakat kuchayishiga olib keldi.

Davridagi repressiyalar milliy ozodlik kurashining mafkuraviy va jismoniy qatlamlarini bostirishga qaratilgan edi. Yuzlab jadidlar, basmachilar va muxtoriyat tarafдорлари o‘ldirildi yoki surgun qilindi.

Milliy ozodlik harakatlari tarixiy voqelik sifatida bir yoqlama baholab bo‘lmaydi. Ular turli shakl va vositalarda namoyon bo‘ldi: ma’rifiy harakat, siyosiy tuzilma va qurolli kurash ko‘rinishlarida. Bu harakatlar har xil baholangan: Sovet davrida basmachilar “qaroqchilar”, jadidlar esa “kontrrevolyutsionlar” deb ataldi.

Ammo zamonaviy tarixiy tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, har bir harakat xalq irodasining ifodasi edi. Ular zulmga qarshi kurashdi, milliy o‘zlikni saqlab qolishga harakat qildilar va bugungi mustaqillik yo‘lida ilk poydevorni qo‘ydilar.

Turkiston xalqlarining ozodlik orzusi jadidlarning qalamida, basmachilarning qilichida, muxtoriyat yetakchilarining siyosiy g‘oyalarida mujassam edi. Ularning har biri tarixiy bosqinchilikka qarshi xalqning qattiq javobi bo‘lib, millatning o‘zligini anglashiga xizmat qildi.

Milliy ozodlik harakatlari O‘zbekiston tarixinining eng dramatik, ammo eng ibratli sahifalaridan biridir. Ular xalqimizning erkinlikka intilishi, o‘zligini saqlab qolish yo‘lidagi kurashi, sabr-toqati va fidoyiligining ifodasidir.

Bu harakatlar faqat o‘tmishda qolgan hodisalar emas, balki bugungi mustaqillikning tarixiy ildizidir. Milliy uyg‘onish, mafkuraviy sobitlik va siyosiy yetuklik shu tarixiy jarayonlar asosida shakllandi.

Shunday ekan, milliy ozodlik kurashchilar – jadidlar, basmachilar va muxtoriyat arboblarining xotirasi abadiydir. Ular xalqimizga ozodlik nima ekanini o‘rgatgan, hozirgi avlodga mustaqillik qadriyatlarini meros qilib qoldirgan buyuk siymolardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do'stmuhammad H. Milliy ozodlik harakatlari tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov B. Jadidlar va mustamlaka siyosati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
3. Qosimov B. Basmachilik harakati va uning saboqlari. – Toshkent: Sharq, 2000.
4. Shokirjonov A. Turkiston muxtoriyati: hujjatlar va tahlillar. – Samarqand, 2020.
5. Shokay M. Turkistondan Turkiyagacha. – Istanbul, 1930-yillar.
6. Rashidov M. O'zlikni anglash va ozodlik g'oyasi. – Toshkent: Nur, 2021.

..